YER OSTI SUVLARINING AHOLI VA AHOLI PUNKTLARI JOYLASHUVIDAGI AHAMIYATI (Nurobod tumani misolida)

Sherxolov Olimjon Iskandarovich
Samarqand davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti, G.f.f.d (PhD)
osherxolov@gmail.com,
https://orcid.org/0009-0002-7718-8737

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand viloyati Nurobod tumanida yer osti suv resurslarining hududiy tarqalishi, suvli qatlamlarning aholi va aholi punktlari joylashuviga ta'siri yoritilgan. Tadqiqotda yer osti suvlarining chuqurligi, suvli qatlamlarning tarqalishi, suv sifati, zaxirasi va foydalanish imkoniyatlari aholi punktlari, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa soha hamda tarmoqlarning joylashuviga ta'siri baholangan.

Kalit so'zlar: yer osti suvlari, aholi, aholi joylashuvi, gidrogeologik xarita, suv sifati, suvli qatlam

Значение подземных вод в размещении населения и населённых пунктов (на примере Нурабадского района)

Аннотация. В данной статье освещены территориальное распространение подземных водных ресурсов, а также влияние водоносных горизонтов на размещение населения и населённых пунктов в Нурободском районе Самаркандской области. В исследовании оценено влияние глубины залегания подземных вод, распространения водоносных горизонтов, качества и запасов подземных вод, а также возможностей их использования на размещение населённых пунктов, сельского хозяйства, объектов социальной сферы и других отраслей и сфер.

Ключевые слова: подземные воды, население, расселение населения, гидрогеологическая карта, качество воды, водоносный горизонт.

The Importance of Groundwater in the Spatial Distribution of Population and Settlements (A Case Study of Nurobod District)

Abstract. This article examines the spatial distribution of groundwater resources and the influence of aquifers on the location of the population and settlements in Nurobod District of Samarkand Region. The study assesses the influence of groundwater depth, the distribution of aquifers, water quality, reserves, and opportunities for their utilization on the location of settlements, agriculture, social infrastructure facilities, and other sectors and branches.

Keywords: groundwater, population, population settlement, hydrogeological map, water quality, aquifer

Kirish. Nurobod tumani maydoniga ko'ra viloyatda yetakchi hisoblanadi. U viloyat hududining qariyb 29 foizini egallaydi. Mazkur tumanda 1 tadan shahar va shaharcha hamda 95 ta qishloq aholi punktlari mavjud. Bu tumanda viloyatdagi qishloq aholi punktlarining 5 foizi mujassamlashgan. Bundan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ko‘rinadiki, tumanda aholi punktlari ancha tarqoq joylashgan. Bunga birinchi navbatda hududining katta qismi cho‘ldan iboratligi, yer osti suvlarining turli chuqurlikda tarqalganligi, kimyoviy tarkibining bir xil emasligi bilan birga oqar suv resurslari tuman hududining ma’lum chekka qismidan oqib o‘tishi kabi omillar bilan bogliqdir.

Asosiy qism. Aholi va aholi punktlarining hududiy joylashuviga tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatadi[2]. Shular orasida suv resurslari, xususan, yer osti suvlari qurg‘oqchil va yarim cho‘l landshaftlariga ega hududlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Nurobod tumani geografik jihatdan Samarqand viloyatining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, hududining katta qismi quruq iqlim sharoitiga ega. Tuman hududida tekislik, adir, tog‘ oldi va tog‘lar bilan bir qatorda Qarnob cho‘lining katta qismi ham joylashgan. Hududning quruq iqlim sharoitida tabiiy suv manbalarining hududiy tarqalishi aholi punktlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim shartlardan hisoblanadi. Shu sababli tumanda aholi joylashuvi bilan suv resurslari o‘rtasidagi hududiy bog‘liqlikni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotda yer osti suvlarining aholi joylashuviga ta’sirini uning geologik tuzilishi, suvli qatlamlarning shakllanishi, yer osti suvlarining chuqurligi va zaxirasi, kimyoviy tarkibi, suv olish imkoniyati, aholi va xo‘jalik faoliyati, aholi punktlarining joylashuvi va rivojlanishi kabi omillar orqali baholash mumkin[1]. Ma’lumki, Sersuv chuchuk suvli qatlamlar mavjud bo‘lgan hududlar aholi yashashi uchun nisbatan qulay hisoblanadi[4]. Bunday hududlar ko‘proq tumanning sharqiy hamda tog‘ oldi qismlarida keng tarqalgan. Aksincha, yer osti suvlari chuqur joylashgan, minerallashuv darajasi yuqori yoki foydalanish imkoniyati cheklangan hududlarda aholi punktlarining joylashishi qo‘shimcha suv manbalariga bog‘liq bo‘ladi. Bunday holat asosan tumanning g‘arbiy va janubi-g‘arbiy qismida ko‘proq kuzatiladi.

Nurobod tumani uchun yer osti suvlarining ahamiyati ayniqsa ichimlik suvi ta’minoti nuqtayi nazaridan katta. 2026-yilgi ma’lumotga ko‘ra tuman aholisining 64 foizdan ko‘prog‘i ichimlik suvi bilan yetarlicha ta’minlangan. Shu bilan birgalikda aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash maqsadida qo‘shimcha magistral quvurlar orqali qo‘shni hududlardan suv olib kelish, shuningdek artezian quduqlar qazish ishlari jadal olib borilmoqda. Suv tarmog‘i yetib bormagan yoki yer osti suvlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan qishloq aholi punktlarida yangi turar joy va boshqa qurilishlarni qurish sekinlashishi, aholi zichligining past bo‘lishi, aholi punktlarining tarqoq joylashishi, aholining boshqa hududlarga vaqtinchalik yoki doimiy ko‘chishi va boshqa muammolar yuzaga keladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, aholi punktlarining shakllanishi faqat suv resurslariga bog‘liq bo‘lmaydi. Shu sababli suv omili boshqa omillar bilan birgalikda baholansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mazkur tumanda azaldan aholi asosan chuchuk suvli yer osti suvlari tarqalgan hududlarda quduq suvlaridan (Boshquduq, Toshquduq va h.k), tog‘ oldi hududlarida quduq suvi bilan birga buloq va soy suvlaridan foydalanib kelingan. Bugungi kunda tuman aholisining katta qismi markazlashgan suv ta’minoti hamda qazilgan artezian suvlari bilan ta’minlangan. Shu bilan birga ayrim aholi punktlari joylashgan hududlarda yer osti suvlarining minerallashuv darajasi me’yordan ortiq bo‘lganligi bois, xonadonlarda maxsus hovuzlar qurilgan bo‘lib, ular suvni sotib olib ichishadi. Bu esa o‘ziga xos muammolarni yuzaga keltiradi. Tuman aholisi yer osti suvlaridan faqat iste’mol uchun foydalanmasdan chorva mollarini sug‘orishda va kichik maydonlarda dehqonchilik hamda xo‘jalikning boshqa tarmoqlarida ham foydalanib keladi.

Tuman hududining katta qismida oqar suv resurslarining mavjud emasligi, yer osti suvlaridan yanada samarali foydalanishni taqozo etadi[7]. Tuman mutasaddilari bu borada soha mutaxassislarini jalb

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qilgan holda yer osti suvlarini atroflicha o'rganishga kirishgan. Shulardan eng e'tiborlisi Samarqand oliy o'quv yurtlari mutaxassislari tomonidan, jumladan dots. S Xaydarov rahbarligidagi S-PF-166 sonli "Nurobod tumani yer osti suvlari qatlamlarini interaktiv gidrogeologik xaritasini ishlab chiqish" nomli startap loyihasi hisoblanadi[5]. Loyiha asosida yer osti suvlarini o'rganish borasida ishlar jadal olib borilmoqda hamda amaliy natijalarga erishmoqda. Buning amaliy natijasi sifatida Nurobod tumanidagi yer osti suvli qatlamlari haqidagi ma'lumotlarni raqamli shaklda tizimlashtirish va ulardan foydalanishni qulaylashtirish imkonini beruvchi interaktiv gidrogeologik xarita ishlab chiqildi. Yer osti suvlarini aholi joylashuvi bilan bog'lab o'rganish tumanning kelajakdagi rivojlanishini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Yer osti va tabiiy suv manbalarini xaritalash faqat gidrogeologik vazifa emas, balki ijtimoiy-geografik va hududiy rejalashtirish vazifasi hamdir.

Xulosa. Nurobod tumani sharoitida yer osti suv resurslari aholi va aholi punktlarining hududiy tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim tabiiy-geografik omillardan biridir. Ayniqsa, quruq iqlim sharoiti va aholi punktlarining katta hudud bo'ylab tarqoq joylashuvi sharoitida suv resurslarining mavjudligi, chuqurligi, sifati va foydalanish imkoniyati aholi punktlarining barqaror rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Tuman hududida ichimlik suvi tarmoqlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar ham suv ta'minoti masalasining hududiy rivojlanish uchun dolzarbligini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2025-yilda Nurobod tumanining Sariko'l qishlog'ida 150 metr loyihaviy chuqurlikka ega quduq orqali yer osti zaxiralarini aniqlash ishlari olib borilgani hududda gidrogeologik ma'lumotlarni muntazam yangilab borish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Agzamova.I.A., Qayumov A.D. «Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi» –T.: Faylasuflar bosmaxonasi, 2013, 122 b.
2. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 156 b.
3. Sharipov Sh.M. Geoekologiya va landshaft ekologiyasi. Darslik.-Toshkent "Tex pro-silver", 2021.-184 b.
4. Шерхолов О.И. Навоий вилояти қишлоқ аҳолиси ва аҳоли пунктлари таркибидаги ўзгаришлар // Янги Ўзбекистонда география фани ва таълимидаги муаммолар, Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Жиззах, 18-июнь 2022. – 323-328 б.
5. Xaydarov S.A. S-PF-166 sonli "Nurobod tumani yer osti suvlari qatlamlarini interaktiv gidrogeologik xaritasini ishlab chiqish" nomli startap loyihasi bo'yicha hisobot ma'lumotlari.
6. Ҳикматов Ф.Х., Сирлибоева З.С., Айтбаев Д.П. Кўллар ва сув омборлари географияси, гидрологик хусусиятлари. Тошкент: Университет, 2000. – 122 б.
7. Ҳикматов Ф.Х., Якубов М.А., Айтбаев Д.П. Ўзан жараёнлари ва ўзан оқими динамикаси. – Тошкент: Университет, 2004. – 57 б.
8. Ҳикматов Ф.Х., Айтбоев Д.П., Ҳайитов Ё.К. Умумий гидрологиядан амалий машғулотлар. – Тошкент: Университет, 2004. – 162 б.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.